

---

## MAKTABDA ZAMONAVIY BIOLOGIYA XONASI

Mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Ta'lim-tarbiyani yo'lga qo'yish, o'quvchilarning sifatli va uzluksiz ta'lim olishini ta'minlash maqsadida maktablarning o'quv va moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib bormoqda. Tumanimizdagi 30-umumta'lim maktabida ham ana shunday ta'lim-tarbiya ishlari amalga oshirilyapti.

Ushbu maktabga "Uzkimyosanoat AJ" tomonidan yangi dizayn, zamonaviy ko'rinishga va barcha qulayliklarga ega bo'lgan biologiya xonasi tayyorlandi. Bu esa o'quvchilarning o'tilayotgan fanlarni tez va oson o'zlashtirishga, o'z ustida ko'proq ishlashiga yordam beradi.

- "Uzkimyosanoat AJ" rahbariyatiga o'z minnatdorchiligimizni izhor etamiz. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiyaga qaratilayotgan e'tibor o'z samarasini beryapti. Bugungi say'-harakatlar yosh avlodning intellektual salohiyatining yuksalishida asos bo'lib xizmat qiladi, deydi maktab direktori Isroiljon Rahimov.

2022-12-29 09:33:13